

## 2. Shrift o'lchami, rangi va Web sahifa foni



### *Xarf o'lchami*

Matnda sarlavxalarni belgilash uchun **< Hx> ...sarlavxa < /Hx>** belgisi qo'llaniladi. Bu erda sarlavxa o'lchami kamayib borish tartibida x=1 dan to x=6 gacha o'zgaradi (1-eng katta). Masalan:

**< h4>** shrift o'lchami **< /h4>**

Keltirilgan tegga yo'nalishni xam qo'llash mumkin :


**< h5 align="right"> 5-darajali sarlavxa < /h5>** (berkiluvchi teg majburiy) qolgan matnlarning xarf o'lchamlari **< font size="n"> .....** **< /font>** buyrug'i yordamida beriladi. Teglar bir-biriga qo'shilgan bo'lishi mumkin (ularni to'g'ri berkitishni unutmaslik lozim). Xarf o'lchami n-ning qiymati 1 dan 7 gacha o'sish tartibida joylashishi mumkin (sarlavxa o'lchamiga teskari xolatda).

Masalan:

```
< p align="center"> < font size="5"> shrift o'lchami=5 < /font>
< /p>
```

Xarf o'lchamlarini odatiy berishdan tashqari size=+2 yoki size=-1 ko'rinishda xam berish mumkin. Odatda Explorer dagi o'lchov 3 ga teng, lekin xar bir foydalanuvchining aloxida sozlanmasi xam bo'lishi mumkin.

**Aniq saxifalar uchun shrift o'lchamlarini saxifa boshida joylanuvchi < basefont size=5> tegi bilan berish mumkin.**



Jadvallarning xar bir yacheykasida yozilgan matnlar

uchun xususiy < font> tegi qo'llaniladi (xarf rangiga xam tegishli).

Xarf rangi color="rang" parametr yordamida beriladi, masalan:

```
< font color=blue size=+5> harf o'lchami 7, rangi ko'k < /font>
```

### ***Maxsus belgilar***

< > & " - belgilari HTML da formatlash belgilari sifatidagi asosiy qiymatga ega. Lekin, ba`zan bu belgilardan o'z belgimiz sifatida ishlatishimizga to'g'ri kelib qoladi. Ularni matnda xosil qilish uchun quyidagilardan foydalaniladi:

&lt - <

&gt - >

&amp; - &

&quot - " (qo'shtirnoq)

shuningdek ixtiyoriy miqdordagi probellarni &nbsp; dan foydalanib qo'yish mumkin.

Quyidagi jadvalda ba`zi belgilarni ifodalashlar berilgan:

| №  | Belgi kodi | natija | Belgi kodi | natija |
|----|------------|--------|------------|--------|
| 1. | 167;       | §      | ”          | ”      |
| 2. | ©          | ©      | “          | “      |
| 3. | ®          | ®      | ”          | ”      |
| 4. | ◦          | ◦      | •          | •      |
| 5. | «          | «      | -          | -      |
| 6. | »          | »      | —          | —      |

**Eslatma: &lt o'rnida &LT dan foydalanish mumkin emas.**

< **BODY**> elementining ichida **Web**-saxifa dizayni uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha elementlarni ishlatish mumkin. **BODY** elementining boshlang'ich tegasi ichida saxifaning ko'rsatgichlarini ta'minlab beradigan bir qancha atributlarini joylashtirish mumkin. Dizayn uchun juda foydali bo'lgan atributlardan biri saxifa foni rangini aniqlab beruvchi quyidagi atributdir.:

**background="Fon fayliga bo'lgan yo'l"**

Fonning oddiyroq usulda aniqlanilishi uning rangini berish orqali amalga oshiriladi:

**bgcolor="#RRGGBB"**

Fonning rangi uchta ikki razryadli qn oltilik sanoq sistemasida ifodalangan sonlar orqali beriladi va ular mos ravishda qizil (**RR**-red), yashil(**GG**-green) va ko'k(**BB**- blue) ranglarning intensivligini aniqlaydilar. **Web**-caxifadagi matnning rangini tanlash uchun quyidagi atribut ishlatiladi:

**text="#RRGGBB"**

Gipermatnlar yozuvining rangini tanlash uchun quyidagi atributdan foydalaniladi:

**link="#RRGGBB"**

Ko'rib chiqilgan gipermatnlar yozuvining rangini tanlash uchun quyidagi atributdan foydalaniladi:

**vlink="#RRGGBB"**

Oxirgi tanlangan gipermatnlar yozuvining rangini tanlash uchun quyidagi atributdan foydalanilishi mumkin:

**alink="#RRGGBB"**

**BODY** elementi ichida joylashgan gipermatn istalgan tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Ushbu tuzilishni ko'p jixatdan **Web**-caxifaning nima maqsadda tashkil qilinayotganligi va dasturchining aqli, farosati va maxorati aniqlaydi desak, unchalik yanglishmagan bo'lar edik.